

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ALIQULOVA DILDORA BAKIR QIZI

**“O‘TKAN KUNLAR”, “TAMILLA” VA “QAMAR” ROMANLARIDA
MAISHIY MUAMMOLARNING BADIY-PSIXOLOGIK TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological
sciences**

Aliqulova Dildora Bakir qizi

“O‘tkan kunlar”, “Tamilla” va “Qamar” romanlarida maishiy muammolarning badiiy-
psixologik talqini.....3

Alikulova Dildora Bakir kizi

Artistic-psychological interpretation of communal problems in the novels “Bygone
Days”, “Tamila” and “Qamar”.....25

Аликулова Дилдора Бакир кизи

Художественно-психологическая интерпретация бытовых проблем в романах
«Минувшие дни», «Тамила» и «Камар».....46

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....52

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

ALIQULOVA DILDORA BAKIR QIZI

**“O‘TKAN KUNLAR”, “TAMILLA” VA “QAMAR” ROMANLARIDA
MAISHIY MUAMMOLARNING BADIY-PSIXOLOGIK TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va
tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.4.PhD/Fil4120 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich**
filologiya fanlari doktori, akademik

Rasmiy opponentlar: **Yusupova Dilnavoz Raxmonovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Umarova Nilufar Turopovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika unversiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44 (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi).

N.Z.Normurodova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

U.H.Jo‘raqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyoti taraqqiyotining so‘nggi yuz yillik tarixi shuni ko‘rsatmoqdaki, antroposentrik yondashuvlarning ustivorlashuvi keskin ravishda adabiy yo‘nalish va metodlarning rang-baranglashuviga olib keldi. Xususan, XX asrga kelib, insonning mohiyatini o‘rganish chuqurlashdi, hayotning mazmuni haqidagi xulosalar an’anaviy qoliplarga, an’anaviy tasavvurlarga sig‘may qoldi. Natijada uning murakkab ruhiyatiga mos ravishda badiiy tafakkurning ifoda usullari ham murakkablashdi. Tom ma‘nodagi haqiqiy adabiyot endi bevosita o‘quvchilar talabi bilan emas, balki yangi davrning tafakkur talablaridan kelib chiqib, insonni tahlil qilishga kirishdi.

Dunyo globallashib borgan sari milliy adabiy jarayonlar o‘rtasida vujudga kela boshlagan o‘zaro ta’sir va ijodiy ilhomlanish ko‘rinishlari yagona adabiy makon shakllanayotganidan darak berdi. Dastlab Fransiya san’ati va adabiyotida yuzaga kelgan modernizm, syurrealizm, postmodernizm, ekzistensializm, absurdizm, ong oqimi kabi inson botinini tahlil qiluvchi ko‘plab yangi adabiy oqimlar asta-sekin butun Yevropa mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketdi.

O‘zbek adabiyotida ham bu adabiy jarayonning uchqunlari rivojlana boshladi. O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab milliy adabiyotimizda “maishiy muammolar”ni tadqiq va tahlil qilgan badiiy asarlar salohiyati bir muncha oshdi. Bu asarlar (jumladan, Abdulla Qodiriy, Xurshid Do‘stmuhammad, Tog‘ay Murod, Ulug‘bek Hamdam, Zulfiya Qurolboy qizi singari adiblar asarlari)da inson faktorini o‘ziga xos olam sifatida o‘rganish va inson xarakteridagi qarama-qarshiliklarni tasvirlashda noan’anaviy usullar (G‘arbona moderncha tasvirlash)ni ko‘rishimiz mumkin. Bu borada adiblarimizga F.Dyushen, E.Zolya, A.Kamyu, S.Bekket, J.Sand singari jahon adabiyoti tafakkuri rivojiga ulkan hissa qo‘shgan daho yozuvchilar ijodi va badiiy salmog‘i jihatdan buyuk asarlarining ta’siri bo‘lganini rad etish nojoizdir. Shu jihatdan, o‘zbek adabiyotining boshqa mamlakatlar adabiyoti bilan ijodiy aloqalarini, ta’sir doiralari o‘rganish, tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, “...adabiyot va san’atga, madaniyatga e’tibor – bu, avvalo, xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqimiz yo‘q”¹. Bugungi adabiy jarayonda bo‘y ko‘rsatayotgan, tub burilish qilayotgan turli tamoyillar, adabiy oqim va ta’limotlarning o‘zaro ta’sir masalalarini jiddiy tadqiq qilish vazifasini qiyosiy adabiyotshunosligimiz oldiga qo‘ymoqda. Mana shu jihat tadqiqotimizning dolzarbligi va ayni kunda adabiyotshunosligimizdagi zaruratini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish,

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 4 август.

kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog'ida adabiyotning ta'sir kuchini oshirish bo'yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm va psixologik tahlil muammosi I.V.Straxov, S.G.Bocharov, A.N.Iezuitov, L.Y.Ginzburg, V.V. Kompaneys, M.B.Xrapchenko, A.B.Esin, M.M.Baxtin, R.Uellek, O.Uorren, P.Rikyor, R.Brat, V.V.Vinogradov, L.Kolobayeva, V.M.Jirmunskiy, A.Zis, D.Zatonskiy, D.Lukich, A.V.Kovalev kabi amerika va rus olimlari tomonidan atroflicha o'rganilgan². Badiiy asarda psixologizm muammosi bo'yicha o'zbek adabiyotshunosligida ham muayyan tajribalar to'plangan, nazariy tadqiqotlar amalga oshirilgan. XX asr so'nggi choragi va undan keyingi davrda yaratilgan o'nlab romanlar ilmiy-adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otib, bahs va munozaralarga sabab bo'lgan. Bu haqda I.Sultonov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mirvaliyev, U.Normatov, H.Umurov, I.Mirzayev, B.Nazarov, N.Karimov, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, Y.Solijonov, H.Boltaboyev, D.To'rayev, S.Meliyev, D.Quronov, Z.Pardayeva, U.Jo'raqulov, A.Xolmurodov, I.Yoqubov, T.Jo'rayev, Sh.Doniyorova, R.To'laboyeva, Sh.Botirova kabi adabiyotshunoslarning salmoqli tadqiqotlari mavjud³. Ammo o'zbek adabiyotshunosligida A.Qodiriy va F.Dyushen romanlarida

² Страхов И.В. Психологический анализ в литературном творчестве: пособ. для студ. / В 5 ч. / – Саратов: Изд. Саратовского университета, 1973. – Ч. 1. – С. 14; Бочаров С.Г. Л.Н.Толстой и новое понимание человека // Литература и новый человек. – М.: 1963. – С. 17; Иезуитов А.Н. Проблемы психологизма в эстетике /литературе // Проблемы психологизма в советской литературе. – Л.: 1970. – С. 18; Гинзбург Л.Я. О психологической прозе. – Л.: 1971. – С. 300; Компанец В.В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е годы) – Л.: Наука, 1980. – С. 47; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – С. 266; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – М.: 1988; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1979. – С. 85; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1973. – С. 207; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Наука, 1979. – С. 422; Р.Уэллек и О.Уоррен. – М.: Прогресс, 1978. – С. 95-107; Рикёр П. Герменевтика. Этика. Политика: Московские лекции и интервью. – М.: 1995. – С. 78-196; Барт Р. Введение в структурный анализ повествовательных текстов// Зарубежная эстетика и теория литературы XIX–XX вв.: Трактаты. Статьи Эссе. – М.: 1987. – С. 407; Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – С. 484; Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 404; Лукич Д. Теория романа. – Варшава, 1963, – С. 229; Ковалев А.Г. Психология литературного творчества. – Л.: ЛГУ, 1960. – С. 214.

³Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.; Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 299-382; Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983; Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969; Норматов У. Насримиз тамойиллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат/, 1978; Ўша муаллиф. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000; Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. – Тошкент: Фан, 1977; Мирзаев И. Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва

maishiy muammolarning badiiy psixologik talqini masalasi monografik aspektda maxsus o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jahon va o'zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o'rganishning umumnazariy muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", Ferdinand Dyushenning "Tamilla", "Qamar" romanlarida maishiy muammolarning badiiy-psixologik talqinini amalga oshirish, shuningdek, bu romanlar o'rtasidagi umumiylik va individuallik jihatlarini qiyosiy-tipologik aspektda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

romanchilik tarixida maishiy mavzular va badiiy psixologizmni adabiy-nazariy va komparativistik muammo sifatida o'rganish hamda maishiy muammolarni poetik aks ettirishda badiiy psixologizmning o'rni va ahamiyatini belgilash;

A.Qodiriy va F.Dyushen romanlari kompozitsiyasida badiiy psixologizm qirralarini ochib berish hamda "O'tkan kunlar", "Tamilla" va "Qamar" romanlari syujetida psixologik tasvir tipologiyasini aniqlash;

maishiy romanlarda obrazlar tizimi, A.Qodiriy va F.Dyushen romanlaridagi obrazlar tasvirida psixologik tasvir yetakchi ekanligini ilmiy asoslash;

"O'tkan kunlar", "Tamilla", "Qamar" romanlarida maishiy, ijtimoiy va qahramon ichki konfliktini psixologik tasvirlashda muallif munosabati xususida nazariy xulosalar chiqarish.

Tadqiqot obyekti sifatida F.Dyushenning "Tamilla", "Qamar" va A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini jahon adabiyoti (xususan, F.Dyushen ijodi) va o'zbek nasri (A.Qodiriy asarlari)da maishiy muammolarning badiiy-psixologik talqini masalasi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, struktur-tahlil, biografik usullardan foydalanilgan.

услуги́й ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983; Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 148 б.; Ўша муаллиф. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон 2001; Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980; Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985; Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004; Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ. 2007; Солижонов Й. Нутқ ва услуб. – Тошкент: Чўлпон, 2002; Болтабоев Х. Наср ва услуб. – Тошкент: Фан, 1992; Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60-80-йиллар). Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, 1994; Мелиев С. Шеърлий матнининг поэтик хусусиятлари. Филол. фан. номз. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2001; Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004; Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2003; Жўрақулов У. Худудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: "Ғулом Ғулом нашриёти" НМИУ, 2015; Тўраев Д. Давр ва ижод масъулияти. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004; Ёқубов И. Мустақиллик даври романлари поэтикаси. Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, ЎзГА ва ФИ, 2018; Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик. – Тошкент: Фан, 1994; Дониёрова Ш. Истиқлол даври ўзбек романларида миллий руҳ ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фан. док. дисс. ...автореф. – Тошкент, 2012; Ботирова Ш. Ҳозирги ўзбек романларида бадий психологизм (Улуғбек Ҳамдамнинг "Мувоzanат", "Исён ва итоат", "Сабо ва Самандар" романлари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс... автореф. – Қарши, 2019; Тўлабоева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадий психологизм. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс... автореф. – Тошкент, 2019.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

romanchilik tarixida maishiy mavzularning aks etish genezisi, xalq ijodiyotiga mansub janrlarda, dostonlarda kelishi ochib berilgan va ayni muammoni poetik aks ettirish vositasi sifatida badiiy psixologizmning ahamiyati, uning adabiy-nazariy va komparativistik muammo ekanligi aniqlangan;

A.Qodiriy va F.Dyushen romanlari kompozitsiyasida badiiy psixologizm qirralari aniqlanib, “O‘tkan kunlar”, “Tamilla” va “Qamar” romanlari syujetida psixologik tasvirning umumiylik va individuallik kabi tipologik xususiyatlari asoslangan;

maishiy romanlardagi obrazlar tizimi, A.Qodiriy va F.Dyushen romanlaridagi asosiy oshiq-ma’shuq, ag‘yor singari obrazlar tasvirida psixologik tasvir yetakchi ekanligi ilmiy dalillangan;

“O‘tkan kunlar”, “Tamilla”, “Qamar” romanlaridagi maishiy, ijtimoiy va qahramon ichki konfliktini psixologik tasvirlashda an’anaviylik va originallik, muallif munosabatidagi xolislik mezonini asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qiyosiy-tipologik metod mohiyatini yoritish, nazariy umumlashmalar chiqarish; jahon va o‘zbek adabiyotshunosligi materiallarini qiyoslash asosida yoritib berishning qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiy aloqalar, adabiy ta’sir muammolariga doir monografik tadqiqotlar tayyorlash, o‘quv, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishdagi ilmiy ahamiyati dalillangan;

dissertatsiyaning nazariy bazasini shakllantirish maqsadida qiyosiy-tipologik metodga doir jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida mavjud materiallar ilmiy tasnif asosida ishlab chiqilgan, shu asosda A.Qodiriy va F.Dyushen ijodining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi masalalari ilmiy asosda yoritilgan;

Har ikki roman kompozitsiyasi, syujet mushtarakligi nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil etilib, nazariy umumlashma va xulosalar chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo‘llanilgan yondashuv usullari va nazariy ma’lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, tadqiqotning mavjud adabiyotshunoslik nazariyalariga mosligi, tahlilga tortilgan materiallarning ilmiy metodlar vositasida asoslanganligi va ishonchliligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tahlil tamoyillari, o‘rganilgan materiallarning ilmiy tasnifi asosida tadqiq etilishi, bu asosda ilgari surilgan ilmiy-nazariy xulosalar o‘zining zamonaviyligi, dolzarbligi, yangilangan roman janri hamda roman kompozitsiyasi, syujeti, obrazlar tizimi badiiy vaqt va epik tasvir mutanosibligiga doir ilmiy natijalar adabiy jarayonda yozuvchi ijod laboratoriyasini boyitishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta’sir, adabiy aloqalar, tarjimachilik va jahon adabiyoti, roman janri, badiiy obraz poetikasi, kompozitsion shakllar, badiiy syujet, uslub, badiiy nutq muammolariga doir monografik tadqiqotlar yaratishda, qiyosiy tipologiya muammolarini atroflicha tushunish va tushuntirishga qo‘l kelishi, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari uchun

darslik, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “O'tkan kunlar”, “Tamilla” va “Qamar” romanlarida maishiy muammolarning badiiy-psixologik talqini bo'yicha olingan natijalar asosida:

yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani kompozitsiyasida badiiy psixologizm, shuningdek, asarda milliy-madaniy, ma'naviy-axloqiy unsurlarni aks ettirishda muallif mahorati va badiiy-estetik individuallik xususiyatlari tadqiqi munosabatlariga oid ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda amalga oshirilgan OT-F1-030 raqamli “O'zbek adabiyoti tarixi” ko'p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 25-iyun 04/1-1665-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan;

romanda kompozitsiya va syujet originalligi, ijodda adabiy ta'sir va uslubiy o'ziga xoslik masalalari, badiiy tasvirda milliy-madaniy unsurlardan foydalanish ko'lami va adib nasri poetikasiga xos boshqa qirralar o'ziga xoslik masalalarining tadqiqi haqidagi qimmatli ilmiy ma'lumotlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo'ljallangan F3-201912258-raqamli “O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 12-iyun 04/1-1472-son ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy konsepsiyasi yangi fikr-mulohazalar bilan boyishiga erishilgan.

“O'tkan kunlar”, “Tamilla” va “Qamar” romanlarida maishiy muammolarning badiiy-psixologik talqiniga doir o'zbek va fransuz badiiy asarlari asosida tahlil qilingan materiallarning nazariy va amaliy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasidagi “O'zbekiston teleradiokanali”ning “Bedorlik” nomli dasturini tayyorlashda foydalanilgan (“O'zbekiston” teleradiokanali 2024-yil 15-apreldagi 04-36-496-sonli ma'lumotnomasi). Natijada teledastur uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni nazariy ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 2 tasi xalqaro hamda 5 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi hamda vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Romanchilik tarixida maishiy mavzu va badiiy psixologizm masalasi**" deb nomlanib, 1.1 §da "*Maishiy muammolar talqini va badiiy talqin tipologiyasi*" degan muammo qo'yilgan.

Jahon romannavisligi tarixida romanning o'nlab tiplari uchraydi. Tarixiy roman, psixologik roman, falsafiy roman, roman-epopeya, muhabbat romani, ma'rifiy roman, ijtimoiy roman, biografik roman, parodiyaviy roman, satirik roman, neomifologik, falsafiy-erotik, tarixiy-filologik, subyektiv-mifologik, "ruhiy utopiya", naql-romanlar shu jumladandir. Maishiy roman mazkur roman tiplari ichida eng qadimiylaridan bo'lib hisoblanadi. Rus nazariyotchi olimi Mixail Mixaylovich Baxtin o'zining "Romanda zamon va xronotop shakllari" deb nomlangan tadqiqotida maishiy roman ushbu janrning eng qadimgi tiplaridan biri ekanini alohida ta'kidlaydi⁴.

Maishiy romanlarning nasr tarixidagi eng qadimiy roman tipi ekani, tabiiy. Ijtimoiy tarix va adabiyot tarixiga oid asarlarda insoniyat ilk bor maishiy muhitda shakllangani to'g'risida so'z yuritiladi. Bundan kelib chiqadiki, odamzotning birinchi badiiy obyekti ham, muammolarga to'la ijtimoiy hayot ham, to'zonli, tashvishli tabiat hodisalari ham bo'lmagan. U dastlab oilasi, maishiy hayoti haqida mushohada qilgan. Bundan esa boshqa kattaroq muammolar talqiniga tomon o'sib borgan. Bu jarayon ko'proq grek antik romani va uning tarixiy ta'siri jarayonlarida yorqinroq kuzatiladi. Ma'lumki, milodning I-III asrlariga oid beshta romanning to'liq matnlari bizgacha yetib kelgan. Ular o'z davrida ham, keyingi davrlarda ham o'ta mashhurlik kasb etgan. Bular Xaritonning "Xarey va Kalliroy", Ksenofont Efeskiyning "Antin va Gabrokom haqida qissa", Axill Tatiyning "Levkippa va Klitofont", Longning "Dafnis va Xloya", Geliodorning "Efiopika" romanlari bo'lib hisoblanadi⁵.

Demak, romanchilik tarixida maishiy romanning ilk shakli to'g'risida quyidagilarni aytish mumkin: 1. Maishiy romanlarning badiiy adabiyotga kirib kelishi va poetik talqin etilishi qadim grek madaniy muhitida aynan roman janri ko'rinishida sodir bo'lgan. 2. Ularda insoniyat maishiy turmushiga oid sevgi-muhabbat, bu yo'ldagi quvonch, iztirob, yo'qotish va topishuvlar, alaloqibat qator iztirobli voqealardan keyingi visol va turmush qurish haqidagi syujet yetakchilik qilgan. 3. Asarda novdadek pokiza va bokira qizni sevib qolgan navqiron oshiq yigit, shunga munosib qiz, ularning sevgisiga qarama-qarshi pozitsiyada turuvchi ag'yor (raqib) obrazlari asosiy obrazlar tizimini tashkil etgan. 4. An'anaviy grek romanlarida bu voqealar ko'proq formal

⁴ Бахтин М. Романда зamon ва хронотоп шакллари. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б. 76.

⁵ Қаранг: Бахтин М. Романда зamon ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Akademnashr, 2015; Полякова С. Об античном романе /<http://izbakurnog.historic.ru/books/item/f00/s00/z0000010/st000.shtml>

mohiyat kasb etgan, syujet va obrazlar an'anaviy badiiy sxema doirasidan chiqmagan bo'lsa-da, Axill Tatiy kabi yozuvchilar asarlarida bu an'ana o'sha qadimgi davrlardayoq yangilangan. 5. Maishiy mavzudagi romanlarning yangilanishi badiiy obrazlarning an'anaviy grek romani qahramonlaridan xarakter xususiyatiga ko'ra farqlanishi, ruhiy-psixologik holatlari, psixologik portretlari, jest, poza va mimikalarining badiiy tasvirlanishi, ayni paytda ularning ichki holatlarini badiiy-psixologik tasvirlashga urinilganligi bilan boshqa romanlardan ajralib turgan. 6. Shuning bilan birgalikda, ilk grek adabiyotiga mansub sevgi-muhabbat, oila qurish mavzusidagi maishiy-muhabbat romanlari Yevropa romanchiligining keyingi taraqqiy etgan davrlarida ham o'z ta'sir kuchini yo'qotmagan. Qadimgi grek romanining bu qadar ulkan ta'sir ko'lamiga egaligi shunda ham ko'rinadiki, bunday ta'sirdan zamonaviy Sharq nasriga mansub arab, turk, eron va o'zbek romanchiligi ham bebahra qolmagan. Shuningdek, dissertatsiyamiz obyekti bo'lgan "O'tkan kunlar", "Tamilla" va "Qamar" romanlari ham ayni ta'sir doirasidan tashqarida emas.

Longning mashhurdan mashhur "Dafnis va Xloya" romani ham maishiy romanlar sirasiga kiradi. Ushbu qayd etilgan romanda ham oshiq va ma'shuq o'rtasidagi sevgi voqealari qalamga olingan. Ammo Dafnis va Xloya sevgisi ham M.Baxtin aytganidek, ma'budlarning xohishi bilan joriy bo'ladi. Ularning birini echki boquvchi, boshqasini qo'y boquvchi cho'ponlar "tasodifan" topib olib, boqishib, tarbiyalashadi. Demak, uning o'z-o'zidan epos syujetlari bilan geneologik munosabatga egaligi ma'lum bo'ladi. Umuman, epos va ertaklardan boshlanib, roman janriga transformatsiya bo'lgan bu voqea maishiy va muhabbat romanlariga xos quyidagi jihatlarni ta'kidlash, epik talqin etishga xizmat qilgan deyish mumkin: a) roman qahramonining g'ayrioddiy tug'ilishi; b) ularning tasodifan topib olinishi voqearining roman syujetida tasodif liniyasining boshlanishiga xizmat qilishi; c) oshiq va ma'shuqning boshqa oddiy bolalardan ajralib turishi; d) biomorfik obyektlar vositasida ularga nisbatan ilohiy homiylikka urg'u berilishi; e) har ikkala qahramonning nasab jihatidan ulug'vorligini ular tashlab ketilganlarida yonlarida qoldirilgan narsa-buyumlar (kiyim-kechak, mato parchasi, medalion, uzuk, kamar, bilaguzuk, tumor va h.k.) vositasida ta'kidlash va ular ulg'aygandan keyin oliy nasab egasi ekanini isbot qilishi; f) qahramonlarning asli shahar ahliga mansub bo'lishlaridan qat'iy nazar tabiat qo'ynida ulg'ayishi, shu muhitni sevib qolishi, shahar muhitidan ko'ra maishiy-ekzotik muhitni ustun qo'yishlari. Ko'rinadiki, sanalgan xususiyatlarning barchasi roman voqeligidagi ikki jihatni ta'kidlashga xizmat qilmoqda. Bularning birinchisi oshiq va ma'shuq o'rtasida muhabbatning joriy bo'lish jarayoni – uchrashuv, ayriliq, visol va baxtli turmush qurish liniyasi; ikkinchisi tabiat qo'ynidagi erkin, pokiza va ekzotik turmush tarzining ulg'lanishi.

Yevropa romanchiligi tarixiga xos M.Baxtin, S.Polyakova, I.Tronskiy, R.Nazirovlar diqqat qaratgan xususiyat, holat va jarayonlar o'zbek romani tarixi uchun ham begona emas. Agarda bizlar o'zbek romanining kelib chiqishi va tarixini birgina Yevropa romanchiligi tarixi va an'analari bilan cheklab qo'ysak to'g'ri bo'lmaydi, albatta. To'liq ma'noda roman janri talablariga javob beradigan, hattoki turkiy xalqlar adabiyoti tarixida birinchi roman bo'lib tanilgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarigacha ham o'zbek badiiy nasri juda uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tdi. A.Qodiriygacha maydonga kelgan epos, ertak, xalq qissalari, yozma klassik

dostonlarni sezgir kuzatadigan bo‘lsak, ular bilan “O‘tkan kunlar” romani o‘rtasida mushtarak jihatlar borligi aniq bilinadi. Professor Umarali Normatovning yozishicha: “O‘zbek adabiyoti ming yillar davomida, asosan, Sharq xalqlari adabiyoti, madaniyati an‘analari doirasida rivojlandi. XIX asr adog‘i, XX asr boshlarida u yangi bir ma‘naviy olamga, Yevropa adabiyoti tajribalariga yuz o‘gira boshladi”⁶. Olimning ushbu fikrlari bizning yuqoridagi kuzatuvlarimiz asosida kelgan xulosamiz tasdig‘idir. Yevropa romani tarixiga oid yuqoridagi tadqiqiy fikrlarimiz faqat F.Dyushen ijodiy maktablari va uning “Tamilla”, “Qamar” romanlarigagina taalluqli emas. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ham Yevropa an‘analaridan F.Dyushen romanlariga nisbatan qaraganimizda kam ulush olmagan. Filologiya fanlari doktori Uzoq Jo‘raqulov o‘zining “O‘tkan kunlar”ga oid tadqiqotida Qodiriyning qaysi milliy va xorij romani an‘analariga ergashganini alohida ta‘kidlaydi⁷. B.Karimovning yozishicha: “Iste‘dodli adib o‘zbek, rus va jahon adabiyotidan, xalq og‘zaki ijodi va xalqning jonli tilidan bahramand bo‘ldi. Bunga shubha yo‘q. Fikrimcha, ushbu bahramandlik ildizining bir qirrasini “Boburnoma”ga borib taqaladi. Shuning uchun “Boburnoma” bilan “O‘tkan kunlar” orasidagi poetik bog‘lamni o‘zaro taqqoslashga zarurat seziladi”⁸.

Demak, jahon va o‘zbek nasrining shakllanishini maishiy mavzudan, maishiy mavzu rivojini esa xalq ijodiyoti, klassik nasr va jahon prozasi an‘analaridan ayro tasavvur etish mumkin emas. Shunga ko‘ra, dissertatsiyamizning keyingi qismlarida A.Qodiriy va F.Dyushen romanlarida jahon va milliy romanchilik an‘analaridan tashqari romanchilikkacha mavjud nasriy bayon, tasvir, til va uslub tajribalariga suyanilgan, muhabbat va maishiy mavzuning psixologik tasvirida bularning barchasi muhim badiiy asos vazifasini bajargan.

1.2 § *“Badiiy-psixologizm maishiy muammolarni badiiy aks ettirish vositasi sifatida”* sarlavhalangan. Unda A.Qodiriy va F.Dyushen romanlari maishiy psixologiya nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil qilingan.

Badiiy-psixologik tasvir roman janrining asosiy talqin prinsipi bo‘lib hisoblanadi. Asosan, tirik va harakatdagi inson turmushi, hayoti bilan ish olib boradigan roman badiiy-psixologik tasvir, qahramonlar xarakteri va portretining ruhiy-psixologik tasvirisiz hech narsaga erisha olmasligi aniq. O‘tgan faslda ko‘rib o‘tdikki, roman janrining o‘ta ibtidoiy, ilk qadimiy tiplaridayoq mualliflar psixologik tasvir zaruratini his etganlar, anglab yetganlar. Ularni favqulodda vaziyatlar, hayotning, turmushning murakkab urinishlari, turli maishiy, ijtimoiy muammolari ichida tasvir etishda psixologik tasvirdan unumli va sezgir kuzatuvlari negizida foydalanganlar. Ruhiy-psixologik tasvir faqat qahramon, personajlar xarakterini ochish uchungina emas, balki voqeliklar, holatlar, vaziyatlar, ijtimoiy munosabatlar, oila munosabatlariga xos chigalliklarni yetarlicha, o‘quvchi tushunadigan darajada ta‘rif, talqin berish imkonini beradi. Adabiyot nazariyasiga doir barcha tadqiqotlarda epik janrlar to‘g‘risida fikr yuritilganda birinchi navbatda badiiy-psixologik tasvir, talqin prinsiplariga urg‘u beriladi⁹. Chunki roman janri, haqiqatdan ham, markaziga insonni qo‘yib tasvirlaydi. Inson psixologiyasini turli vaziyatlarda, badiiyatning turli

⁶ Normatov U. Qodiriy mўъjizasi. – Toshkent: Ўзбекистон, 2010. – Б. 192.

⁷ Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури. – Toshkent: Nurafshon business, 2020. – Б. 10-11.

⁸ Карим Б. Абдулла Қодирий феномени. – Toshkent: Info Kapital Group, 2019. – Б. 200.

⁹ Султон Иззат. Адабиёт назарияси. – Toshkent: Ўқитувчи, 1980. – Б. 243-244.

rakurslarida ochib beradi. Buning uchun yozuvchi tarixiy yoki o‘zi mansub zamonani keng epik qamrovda idroklay olishi, badiiy talqin etishi lozim. Xuddi shunday keng qamrovdagi jamiyat, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning tashqi muhit bilan bog‘liq tomonlari, ichki holatlari, botiniy quvonch, qayg‘u, iztiroblari psixologik tahlil yo‘li bilan ochiladi, albatta.

Demak, psixologik tasvir, badiiy psixologizm masalasi adabiyot taraqqiy etgani, jamiyat va odamlarning xarakteri murakkablashgani sari rivojlanib, chuqurlashib boradi. O‘zbek adabiyoti epik asarlari tadriji misolida kuzatadigan bo‘lsak, masalan, xalq eposi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Alpomish” dostonlaridayoq psixologik tasvirning muayyan shakllariga duch kelamiz. Xalq dostonlaridagi ushbu holatlarning hammasi oila muhiti va undagi muammolar bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Bu esa maishiy muammolar (masalan, oila qurish, quda bo‘lish, oilaviy totuvlik, tug‘ilgan xonadonni himoya qilish kabi) o‘sha paytda, xalq baxshilari tomonidan kuylangan bo‘lishligiga qaramasdan, psixologik tasvirlardan xoli bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. O‘zbek mumtoz dostonlarining jahon adabiyoti durdonalari ichida o‘ziga xos o‘rni, ahamiyati, tahlil va tasvir prinsiplari mavjud. Bunday prinsiplardan biri ideal obraz yaratish tamoyili bo‘lsa, ikkinchisi ideal obrazga zid salbiy obrazlarni ijobiy obrazlarga kontrastlash orqali psixologik tasvirni yuzaga keltirishdir. Bu jihat Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidayoq boshlangan. Asardagi Kuntug‘di, Oyto‘ldi, O‘gdulmish, O‘zg‘urmish obrazlari ularning jamiyatdagi salbiy va neytral shaxslar, dunyoqarash va e‘tiqodlar bilan kontrastli munosabatlari shundan dalolat beradi¹⁰. Bu jihat Qutbning “Xusrav va Shirin”, Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonlarida ham aniq ko‘rinadi¹¹. Bu holatni biz Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida ham sezgir kuzatishimiz, tahlil, talqin qilishimiz mumkin. Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asaridan davom etib kelayotgan bu badiiy syujet, albatta, o‘zining jozibadorligi, ichki iztiroblar, psixologik kontrastlarni ifoda etishi bilan ko‘plab shoirlarni maftun etgan¹². Ko‘rinib turibdiki, dastlabki mumtoz dostonlarimizdan boshlab qahramon psixologik holatini so‘zda ifodalashning turli-tuman usullari mavjud bo‘lgan. Bunday holat, vaziyatlarni ifodalovchi epizodlar biz tadqiq etishni ko‘zda tutayotgan “O‘tkan kunlar”, “Tamilla”, “Qamar” romanlariga ham birdek xosdir. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida esa Makkora kampir Farhodning oldiga borganida o‘zini o‘ta bechorahol, halol, taqvodor, birovlardan yordamini ayamaydigan mehribon qilib ko‘rsatadi. Shu tarzda Farhodning ishonchi va hurmatini qozonadi. Sodda Farhod ham uning bunday mohirona so‘zlariga, shubhasiz, ishonadi. Oqibatda, Shirinning zahar ichib o‘lgani haqida yig‘lab aytgan so‘zlari Farhodni muvozanatdan chiqaradi. Iztirob va azob ichida o‘lim topishiga olib keladi. Shu joyda qayd etib ketish ehtiyoji borki, “O‘tkan kunlar”dagi Jannat, “Tamilla”dagi Matsiyon obrazlari ko‘p jihatdan shu Zoli makkora obraziga xarakter nuqtayi nazaridan mos keladi. Ayniqsa, A.Qodiriyning Jannat obrazining Kumush va Otabek ayrolig‘ini yuzaga chiqarish uchun Homid tomonidan maslahat majlisiga chaqirilishi, Zoli makkoraga o‘xshab pul bilan yollanishi, uning Kumush bilan uchrashgandagi makkorona o‘zini tutishi, Kumush

¹⁰ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2020.

¹¹ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Энг қадимги даврдан 17-асргача. Қайта тайёрланган нашри. – Тошкент: Kafolat print company, 2021. – Б. 178.

¹² Шу манба. – Б. 210.

“taloq xati”ni o‘qib hushidan ketganida yuzidagi ajinlarini tirishtirib tirjayishi Farhod va makkora uchrashuviga psixologik tasviri nuqtayi nazaridan juda o‘xshab ketadi¹³.

Ko‘rinadiki, maishiy va muhabbat mavzulariga xos janr xususiyatlari romanning ilk davrlarida markaziy syujet ko‘lamini egallaganidek, keyingi davr romantik, realistik, naturalistik roman tiplarida ham birdek davom etgan. A.Qodiriy va F.Dyushen asarlari esa mana shu o‘rganilgan, ilmiy tasnif etilgan roman tarixining uzviy davomi bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi **“Tarixiy-maishiy roman kompozitsiyasi va syujetida badiiy psixologizmning namoyon bo‘lishi”** deb nomlanadi. 2.1 §da *“A.Qodiriy va F.Dyushen romanlari kompozitsiyasida badiiy psixologizm”* masalasi o‘rganilgan. Darhaqiqat, kompozitsiya badiiy asarning yozilishi, tarkibiy qismlarining shakllantirilishi, o‘qilishi, tushunilishi, badiiy qabul qilinishini ta‘min etuvchi badiiy qurilma bo‘lib hisoblanadi. Badiiy asar kompozitsiyasi uning qanday asar ekanligini ham belgilaydi, albatta. Kompozitsion jihati to‘g‘ri shakllanmagan holatda asardan ko‘zda tutilgan eng yuksak g‘oya ham yo‘qqa chiqishi mumkin. Aristotel kompozitsion butunlik xususida shunday fikrni olg‘a suradi: “Butun – bu, ibtidosi, o‘rtasi, va intihosi bo‘lgan bir narsadir”¹⁴. Faylasufning fikriga ko‘ra, jamlik, uyushqoqlik, butunlik qancha bekamiko‘st, mustahkam, mahkam bo‘lsa, badiiy asarning immanentligi, emotsionalligi, ontologik xususiyatlari, poetikasi risoladagidek bo‘ladi. Demak, badiiy asar kompozitsiyasini 1) asar g‘oyaviy-estetik ta‘sirini ta‘minlash vositasi; 2) mazmun va shakl, asar qismlari o‘rtasidagi mutanosiblikni tashkil etuvchi kuch; 3) muallifning tasvir etilayotgan voqelikka munosabatini belgilovchi kategoriya; 4) yozuvchi yoki muayyan badiiy asarga tegishli bayon usulining o‘ziga xosligi tarzida jamlab tushunishimiz mumkin.

Kompozitsiyaning bu tarzdagi ta‘rif-u tavsiflari, ushbu nazariy tushunchaga oid izlanish va xulosalar ko‘p, xilma-xil va turli-tuman. Qolaversa, bu keltirilgan fikr, xulosalarning aksariyati kompozitsiyaning an‘anaviy shakllariga tegishliligi, A.Qodiriy va F.Dyushen asarlari tabiatiga to‘liq muvofiq kelishi bilan biz uchun muhim bo‘lib hisoblanadi. Bosh qahramon psixologiyasidagi dinamika, og‘ish, tanazzul, iztirob va quvonchli holatlar yozuvchi nuqtayi nazari asosida asar mazmunini shakllantirilib, kengaytirilib, mukammallashtirilib borar ekan, asardagi boshqa personajlarning unga ta‘siri bo‘lgani holda, ayni vaqtda undan ta‘sirlanishi, natijada, o‘z fikr-qarashlari, faoliyatini yangilash, o‘zgartirishiga olib keladi. Masalan, “O‘tkan kunlar” romanida Otabek usta Alim hikoyasidan ta‘sirlanganidek, unga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Mardligi, millat va oila haqidagi qarashlari alaloqibat usta Alim bilan yaqin do‘st bo‘lib qolishlariga, hatto rus chorizmiga qarshi kurashda birga shahid bo‘lishlarigacha olib keladi. Bir so‘z bilan aytganda ularni oila qurishdek bir muhim maishiy muammo birlashtiradi. Bu birlashuvning natijasi esa mustahkam do‘stlik va maslakdoshlik bilan oxiriga yetadi.

A.Qodiriy o‘zbek va Sharq xalqlari ma‘naviy mulki bo‘lgan nasr an‘analarini davom ettirgan. Bu an‘anaga oid doston, ertak, qissa, masnaviychilik an‘analariga ergashgan. Qolaversa, roman mavzusining yaqin tarixdagi maishiy muammolar, ko‘p

¹³ Алишер Навоий. Хамса. Фарход ва Ширин. МАТ. Саккизинчи том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 397.

¹⁴Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Фафур Фулом, 1980. – Б. 19.

xotinlilik, kundashlik, ayriliq, oilaviy mojarolar, fitna va boshqa muammolarga bag'ishlanganligi, A.Qodiriy asarining birinchi o'zbek romani ekanligi, uning xalqqa yaqin va tushunarli bo'lishini ta'minlashdek ijodiy niyati "O'tkan kunlar" qurilishining birmuncha an'anaviy bo'lishiga olib kelgan. Eslatib, urg'ulab o'tish lozimki, "O'tkan kunlar" F.Dyushen romanlariga o'xshab faqat tor maishiy muammolarni yoritishga qaratilmagan. Bunda yozuvchining maqsadi, niyati oilaviy mojarolar fonida XX asr o'zbek millati hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy, siyosiy, ruhiy-ma'naviy, maishiy-psixologik fojialarni yoritish edi. Ammo asarda ijtimoiy tasvir qatlami bilan maishiy hayot tasviri qatlami nisbati shu darajada mo'tadil tutilgani sabab ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki romandagi maishiy muammolar katta ijtimoiy muammolar bilan, ijtimoiy muammolar esa chuqur maishiy muammolar bilan sintezlashib, qo'shib, qorishib ketadi. Bu jihatlar A.Qodiriy va F.Dyushen romanlari kompozitsiyasining qiyosiy tadqiqidayoq yaqqol ko'rinadi. Shulardan kelib chiqqan holda, ushbu faslning davomida A.Qodiriy va F.Dyushen romanlari kompozitsiyasi va ularga xos psixologik tasvir masalalarini muqoyasaviy tadqiq etishga harakat qilamiz.

Badiiy nutqning hikoya qilish, tavsif, dialog singari yetakchi shakllari har uchala romanda ham atroflicha istifoda etilgan. Bunda hikoyalash muallif konsepsiyasi, nuqtayi nazari, nutqiy individualligini namoyon etib keladi. Ta'rif-tavsif qahramon, personaj, syujet hamda asar voqeligini tashkil etuvchi epizodlar tizmasini xarakterlashga xizmat qiladi. Dialoglar esa romanlardagi personajlar tizimining izchil tarzidagi poetik harakatini ta'minlaydi. Biz tadqiq etayotgan romanlarda, asosan, an'anaviy romanchilikka xos badiiy nutq shakllari istifoda etilgani bois bu o'rinda favqulodda yangi nutq shakllarini uchratish qiyin. Ammo klassik romanlarga xos nutqiy jarayonlarning tizimli namoyishi yaqqol kuzatiladi. "Qamar" romanida muallifning o'zi hikoyalovchi va tavsiflovchi rolini aniq bajaradi. Faqat dialogik muloqotlardagina bu rolni nisbiy tarzda qahramonga yuklaydi. Romanning ilk jumlasini ham "Tamilla" va "O'tkan kunlar" romanlaridan farqli ravishda dialogik nutq shakli bilan boshlanadi. F.Dyushenning "Qamar" romani "*Oyi, oyi, mehmon keldi, mehmon!*" tarzida dialogik usulda boshlanishida F.Dyushen ijodiga xos, poetik talqin va uslub individualligi ko'zga tashlanadi. Yozuvchi voqea, qahramonlar, asar g'oyasi bilan tanishtirmasdan o'z asarini to'g'ridan-to'g'ri dialogdan boshlaydi. Dialog bo'lganda ham hayajonli, quvonchli, ko'tarinki pafosdagi dialog bilan boshlaydi. Asar bosh qahramoni Qamar tilidan aytilgan bu so'zlarning zamirida komizm bilan sentimentallik uyg'unlashib ketgani aniq bilinadi. Har uchala romanda asosiy roviy vazifasini muallifning o'zi bajaradi. Ayniqsa, "O'tkan kunlar" va "Tamilla" romanlarida bu qoida qat'iy tarzda amal qiladi. Rivoya subyektini sifatida har bir voqea, kichik epizod, obraz tasviri, xarakter tasviri muallif nutqi orqali bayon etiladi. Psixologik tasvirning muallif tomonidan amalga oshirilishi natijasida chetdan turib tasvirlangan qahramon portreti, xakteri yoki asardagi zamon va makon aniqlik va izchillik kasb etadi. Epik qamrov muallif subyektini orqali o'zining obyektiv talqinini namoyon etadi. "Tamilla" va "Qamar" romanlarining "O'tkan kunlar" romanidan kompozitsiya, mazmun, badiiy g'oya tomonlama keskin farqlanadigan bir jihati borki, buni qayd etmasdan turib A.Qodiriy va F.Dyushen asarlari qiyosiy tahlilini to'laqonli amalga oshirish mumkin emas. Bu farq birinchidan, A.Qodiriy romanida milliy dard, ijtimoiy muammolar bilan oilaviy, maishiy muammolar uyg'un aks ettirilgan bo'lsa, F.Dyushen romanlari,

asosan, maishiy muammolarning sentimental-psixologik talqin etilishida ko‘rinadi. Ikkinchidan, A.Qodiriy romani bir millat tarixi va buguni haqidagi shu millat vakili bo‘lgan, shu millat uchun iztirob chekkan bir muallif qalamiga mansub. F.Dyushen romanlari esa begona bir millat haqida xorij kishisi, qolaversa, mustamlakachi bir millat yozuvchisining nuqtayi nazarini ifodalaydi.

Ikkinchi bobning 2.2 §da “O‘tkan kunlar”, “Tamilla” va “Qamar” romanlari syujetida psixologik tasvir tipologiyasi” deb nomlangan. O‘rganilayotgan romanlar syujetining o‘ziga xosligi, ularning bir tomondan an’anaviy jahon romani bilan bog‘liqligi, shuningdek, muayyan novatorlik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Romanlar syujeti tahlili asosida badiiy-psixologik tasvirga oid ilmiy talqinlar ilgari surilgan. Badiiy asar syujeti biz oldingi faslda ba’zi jihatlari haqida to‘xtalgan kompozitsiyaning uzviy va ajralmas qismidir. Roman kompozitsiyasining o‘zagi bo‘lgan syujet kompozitsiyasi haqida so‘z yuritishdan maqsad tadqiq etilayotgan romanlar syujet strukturasi va unda psixologik tasvirning ahamiyatini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Tadqiq etilayotgan “O‘tkan kunlar”, “Tamilla”, “Qamar” romanlari syujetini quyidagi jihatlarga ko‘ra tahlil etish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

a) qahramonlarning tashqi harakatlariga va ichki ruhiy holatiga ko‘ra; b) bayon davomida syujet voqealarini xronikali yoki konsentrik shaklda makon va zamon tizimida uyushtirish usuliga ko‘ra; c) syujetning ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim tarzidagi ichki tarkiblanishiga ko‘ra; d) asar konfliktining ichki va tashqi shakllariga ko‘ra.

Syujet psixologiyasining yuzaga kelishi qahramonlarning ichki va tashqi xatti-harakatlarida yaqqolroq ko‘rinadi, albatta. Asardagi markaziy yoki bosh qahramon tarzida ataladigan obraz harakati bu yerda asosiy uyushtiruvchi, jamlovchi komponent vazifasini bajarib keladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, “O‘tkan kunlar” romanidagi Otabek, “Tamilla” romanidagi Tamilla obrazlari syujetning asosiy harakat markazi bo‘lib hisoblanadi.

“O‘tkan kunlar” romani Otabekning harakati bilan boshlanib, uning harakati bilan yakunlanadi. Uning Marg‘ilon karvonsaroyiga kelib tushishi bilan boshlangan roman syujeti Toshkentni tark etib ketishi bilan tugaydi. Shu o‘rtada yuz beradigan barcha katta-kichik voqealar, boshqa qahramonlarning xatti-harakatlari Otabekning harakatlari bilan uzviy ravishda bog‘lanib ketadi. Muayyan voqealarda Otabekning o‘zi bevosita ishtirok etmasligi ham mumkin, ammo u ishtirok etmagan voqea ham qaysidir jihatdan uning faoliyatiga bog‘lanadi. “Tamilla” romanida ham xuddi shu holatni kuzatish mumkin. Asar qahramoni Tamilla oilasi va jamiyat aqidalariga tutqun, erksiz, otasi tomonidan mol kabi sotilgan bir qiz bo‘lishiga qaramasdan, romanda bironta voqea yoki qahramon faoliyati yo‘qki, u bilan bog‘lanmagan bo‘lsin. Romandagi bunday voqealar zanjiri Tamillaning o‘limi bilan nihoyalanaadi. Ayni paytda bu o‘lim romanning umumiy matniga ham yakun yasaydi.

Asar markazidagi obrazlar orasida ag‘yor maqomida turadigan Homid xatti-harakati bilan boshlangan voqeaning bir uchi Hasanali orqali Toshkent va undagi siyosiy voqealarga olib kelsa, ikkinchi uchi bizni Xudoyorxon saroyiga olib boradi. Shu zanjir orqali o‘quvchi Xudoyorxon saroyi, ichki muhiti, undagi mansab pillapoyalari, mansabdorlar, eng muhimi, Qo‘qon xoni Xudoyorxon va mashhur tarixiy

shaxslardan biri Musulmonqul siymosi, ularning tabiatlari, saroyda Otabeklar tushgan dramatik vaziyatlar bilan tanishadi. Kuzatishimizcha, bu zanjir toki Otabek bilan Qutidor o'limdan qutulib, Otabek Kumushning visoliga yetgunicha davom etadi va roman syujetida muhim o'rin tutadi. Bunda o'quvchi faqatgina personajlar xatti-harakati bilan emas, yozuvchining maishiy, milliy, ijtimoiy, madaniy g'oyalari bilan ham bosqichma-bosqich tanisha boradi.

“Tamilla” va “Qamar” romanlarida ham voqealar xuddi shu tarzda qahramonlarning tashqi va ichki harakatlariga ko'ra uyushtirilgan. Birinchi bobda biz to'xtalib o'tgan qadim Grek romanlari, turkiy xalq folklori va mumtoz adabiyoti syujet an'analari ma'lum ma'noda saqlanib qolgani A.Qodiriy va F.Dyushen romanlari syujetining o'xshashligini ta'minlagan birinchi omil bo'lsa, ikkinchi omil asarlarning bosh mavzusi maishiy, ishqiy mavzu ekanligidir, deb o'ylaymiz. Biz xuddi “O'tkan kunlar”dagi Homid obrazi xatti-harakati bilan bog'liq zanjirli syujet o'zgarishlarini “Tamilla” asarida Matsiyon, “Qamar asarida “Muhammad” obrazi misolida yaqqol kuzatishimiz mumkin.

“Qamar” romanidagi fojiali syujetning boshida Qamarning ko'z ochib ko'rgan turmush o'rtog'i Muhammadning eskicha urf-odatlariga mukkasidan ketganligi sabab bo'ladi. Asli oilasida yevropacha tarbiya ko'rgan Qamar turmushga chiqqanidan keyin arablarning an'anaviy urf-odatlariga asta-sekin ko'nikib ketishi aniq edi. Ammo yosh va Tamilladan ancha farq qiladigan erkin fikrli qizga eri Muhammadning nikohning birinchi kechasidanoq qo'pol muomala qilishi, chimildiqqa kirish oldidagi kelinning gapirmasligi to'g'risidagi arzimagan taomilni buzgani sabab hatto tarsaki tortib yuborishi uning qalbini jarohatlaydi. Ammo Qamar yengiltak, mulohazasiz qiz emas edi. Ota-ona obro'si, mahalliy rusumlarning qat'iyligi, uni buzish mumkin emasligiga aqli yetib turadi. Ammo eri Muhammadning doimiy behuda rashki uni asta-sekin muvozanatdan chiqaradi. Muhammadning behuda rashki tufayli ko'plab nomuvofiq fikrga kelgan Qamar taqdiri shu darajada o'zgarib ketadiki, bunday holat Jazoir arablari muhiti uchun ham, Qamar kelin bo'lib tushgan, oldinroq unib-o'sgan oilasi uchun ham favqulodda, kutilmagan holat edi. Qamarning bunday ichki dinamik xatti-harakati uning keskin qarorlar chiqarishiga olib keladi. Oqibatda o'z eriga xiyonat qilib, g'ayridin, ya'ni fransuz bo'lgan Jonga ko'ngil beradi. Bu ishi oshkor bo'lib eri Muhammad tomonidan pichoqlanadi. Oqibat ish sudgacha borib yetadi. Bu sud ishida arab muhitining ta'siri kuchli ekanligi sabab, Qamar tomon yutqizadi. Shu tarzda romandagi boshqa obrazlar hayotida ham harakat shiddati kuchayadi. Bir xatti-harakat keyingi maishiy va ijtimoiy harakatlarning kelib chiqishiga olib keladi.

Dissertatsiyamizda tadqiq etilayotgan har uchala romanda vaqt jihatidan parallel yuz beradigan syujet tarmoqlari faol uchraydi. Hayotning o'zi ham xuddi shunday parallel vaqtda kechadigan voqea va hodisa holatlardan iborat. “Tamilla” va “Qamar” romanida ham syujet parallellizmining o'nlab shakllarini uchratishimiz mumkin. Birgina Qamar va Jon o'rtasidagi arab urf-odatlari, shariatga teskari muhabbat mojarosi voqeasini badiiy uzviylikda kuzatganimizda ham uning qanchalik keng qamrov hosil etganini ko'ramiz.

Demakki, romandagi parallel syujetlar garchand hayotiy situatsiyalar asosiga qurilgan bo'lsa-da, aynan hayotdagingining o'zidek bo'la olmaydi. Qamrov tomonlama o'ta tor bo'lgani kabi, uning barcha tarmoq va tarmoqchalari bir voqea yoki qahramon

atrofiga uyushadi. Mana shunday parallel syujet tarmoqlarining mahorat bilan uyushtirilishi, voqealarning personajlar xatti-harakatiga mos aniq bir g'oya, badiiy pafos uyg'unligida tasvirlanishi roman voqeligining badiiy haqiqatga mosligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning so'nggi bobi **“Tarixiy-maishiy romanlarda obrazlar tizimi”** deb nomlanadi. 3.1 §da *“A.Qodiriy va F.Dyushen romanlaridagi asosiy obrazlar tasvirida badiiy psixologizm”* masalasini o'rganishga qaratilgan.

Roman janri personajlar tizimining murakkabligiga ko'ra boshqa janrlardan ajralib turadi. Agarki hikoya janri obrazlari bir kichik voqea va uning ro'y berish qamroviga ko'ra bir tizimli hamda kam sanoqli personajlarni o'z ichiga olsa, qissa janridagi barcha personajlar bosh qahramon atrofida tizimlashadi. Ya'niki, hikoya qahramonlari kichik voqea birligiga tobe bo'lib hisoblansalar, qissa qahramonlari yozuvchi ilgari surayotgan markaziy g'oya (konsepsiya) va bosh qahramon xatti-harakatlari doirasida uyushadi. Romanda esa har ikkala janr obrazlar tizimini ham uchratish mumkin. Roman syujeti voqelik qamrovini o'zida jamlash e'tiboridan o'nlab hikoyalar va hikoya obrazlarini o'zaro uyg'unlashtirishi mumkin. Professor G'.Murodov A.Qodiriy o'zbek tarixiy romanchiligining asoschisi deya ta'kidlar ekan, *“O'tkan kunlar”* mazmun ko'lami hamda voqelikning badiiy-tarixiy talqin etilishi, obrazlar tizimini shakllantirilishida jahon romani tajribalari qo'l kelganiga urg'u beradi: *“V.Skott romani tajriba va an'analari XX asr so'z san'ati, jumladan, Markaziy Osiyo tarixiy romanchilik tajribasida ham davom etdi. Abdulla Qodiriy, Sadridin Ayniy, Cho'lpon, Oybek epik ijodida bunday adabiy-badiiy vorisiylikni ko'rishimiz mumkin”*¹⁵. Filologiya fanlari doktori, professor U.Jo'raqulov esa o'z tadqiqotlarida *“O'tkan kunlar”* romani tarixiyli, ularda tarixning yaqin o'tmishdagi voqealari badiiy aks ettirilgani bilan romandagi obrazlar tizimi tamomila boshqa genezisga borib taqalishini urg'ulaydi. Romandagi barcha obrazlar tizimini yagona bir tizim sifatida tadqiq etadi. Xususan, roman xronotopi, syujeti, kompozitsiyasi, tili va uslubi masalalari atroflicha tahlil etilgan. Ammo olimning qayd etishiga qaraganda, roman janridagi o'zgarmas badiiy komponentlar, asosan, ikkita, bularning biri syujet, ikkinchisi esa obrazlar tizimi bo'lib, ular o'ta qadimiy ildizlarga egadir¹⁶. Olim *“O'tkan kunlar”* romanidagi obrazlarni quyidagi tarzda tizimlashtiradi: a) oshiq (Otabek) obrazi; b) ma'shuqa (Kumush) obrazi; c) raqib (Homid) obrazi; d) universal (Yusufbek hoji, Qovoq devona) obrazlar; e) ota-ona (Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Mirzakarim qutidor, Oftob oyim) obrazlari; f) do'st (usta Alim) obrazi; y) xizmatkor (Haysanali, To'ybeka, Oybadoq) obrazi; g) kundosh (Zaynab) obrazi. Tasnifdagi obrazlarning asosiy qismi mana shu tip roman obrazlariga mansubiylik kasb etadi. Masalan, romandagi oshiq (Otabek), ma'shuqa (Kumush), raqib (Homid) obrazlari; ota-ona (Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Mirzakarim qutidor, Oftob oyim), xizmatkor, kundosh (Zaynab) obrazi muhabbat yoki ishqiy-maishiy roman obraziga mansubligi jihatidan qadimgi grek romanlari *“Dafnis va Xloya”*, *“Levkippa va Klitofont”*, *“Oltin eshak”* asarlari obrazlar tizimiga juda yaqin. Professor Bahodir Karimov Yusufbek hoji obrazini *“hojilik sifati”* bilan yuksakka ko'tarilgan obraz, Otabekni ma'shuqa sehriga

¹⁵ Муроодов Ф. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 12.

¹⁶ Қаранг: Жўрақулов У. Қодирий ва роман тафаккури. – Тошкент: Nurafshon business, 2020. – Б. 71.

oshufta oshiq, Kumush obrazini ko‘zlari jon olguvchi klassik ma’shuqa obrazi, Xudoyorxonni esa murakkab davrda taxtga kelgan hukmdor obrazi sifatida talqin qiladi¹⁷.

F.Dyushen romanlaridagi obrazlar tizimi ham umumiy jihatdan qaralganda, A.Qodiriy obrazlar tizimi bilan qator mushtarakliklarga ega. F.Dyushen bir tomondan qadim grek romanlaridagi obrazlarni tizimlash an’anasiga rioya qilsa, boshqa tomondan yevropalik yozuvchi bo‘lganiga qaramasdan, u ham Sharq xalq romanik dostonlari, ertaklari, she’riy qissalari, mumtoz yozma dostonlari tizimini mustahkam o‘zlashtirgan, ijodiga tatbiq etgani aniq seziladi. Zotan, F.Dyushengacha ham fransuz romanchiligi o‘zining xos uslubi, kompozitsion tizimi, obrazlari, mavzular ko‘lami bilan jahon adabiyoti sahnasida eng yuqori o‘rinni egallagan edi. Yevropadagi yangi romanlar, ungacha bo‘lgan G‘arb Renessans romanchiligi, ritsar roman an’analari juda yaxshi bilgan, ularni o‘qib o‘zlashtirgan F.Dyushen shu an’analardan ta’sirlanmasligi mumkin emas edi, albatta. Bu xarakterdagi adabiy ta’sir F.Dyushenning boshqa tip romanlarida yaqqol seziladi. Ayni paytda F.Dyushendan keyingi davrda yozilgan romanlar ham fransuz romani qanchalar nazokat va shiddat bilan rivojlanib, o‘sib borganligini ko‘rsatadi. Yana shuni alohida ta’kidlashimiz maqsadga muvofiqki, F.Dyushen o‘z romanlarida voqelikni badiiy talqinlash, obrazlar tabiatini belgilash, badiiy xarakter va portret barpo etishda G‘arb va Sharq nasrchiligi an’analari jamlagani, poetik sintezlagani aniq bilinadi. “Tamilla” va “Qamar” romanlari obrazlar tizimida ham oshiq, ma’shuq, ag‘yor obrazlar tizimi yetakchilik qilgani kuzatiladi. Xuddi A.Qodiriy romanidagidek bu romanlardagi boshqa obrazlar shu uch obraz atrofiga kelib birlashadi. Ya’ni ularning har biri alohida obrazlar tizimini tashkil etib, bu uchlik ichida ro‘y beradigan syujet voqeligi, psixologik tasvir asosida yuzaga kelgan ichki kurashlarni tashkil etadi. Agarki biz Tamilla va Qamar obrazlarini asardagi Kumush obraziga, Oqili va Muhammad obrazlarini Otabek obraziga, Mina va Frans obrazlarini Zaynab obraziga tipologik solishtirsak, bu fikrning to‘g‘riligiga to‘la amin bo‘lamiz.

Lekin shuni qayd etish joizki, Qamar ham Tamilla va Kumush kabi hayoti baxtsizlik bilan yakun topgan, fojiaiy obrazdir. Chunki Qamarni ham shunday nomunosib o‘limga olib kelgan sabablar muhabbatsiz turmush, nomuvofiq maishiy muhit, aqidaparast, antigumanistik jamiyat bo‘lib hisoblanadi. Bunday maishiy muammoga duchor bo‘lgan har bir ayol zoti, albatta, bu fojiadan o‘z irodasi, kuchi bilan chiqib keta olmaydi. Jamiyat, ota-ona, sevgan yor, tuzum va qonun tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan ayol albatta Qamar va Tamillalar fojiasiga uchraydi. Shuning uchun ham Tamilla va Qamar fojiasini faqat maishiy muammo emas, ijtimoiy muammo deyishimiz, insoniy jamiyatni jar yoqasiga olib borishi mumkin bo‘lgan fojia sifatida tushunishimiz darkor.

Uchinchi bobning 3.2 §da “*Romanlarda maishiy, ijtimoiy va qahramon ichki konfliktining psixologik tasviri*” muammosiga bag‘ishlangan. Roman janrida obrazlar xarakterining shakllanishi, rivoji, syujetning keskin, qiziqarli bo‘lishi va muhim badiiy qiymat kasb etishi uchun quvvat yadrosi vazifasini bajaradigan komponent konfliktidir. Odatda psixologik tasvir ham ko‘pincha ichki va tashqi konflikt doirasida chuqurroq,

¹⁷ Каримов Б. Абдулла Қодирий феномени. – Тошкент.: Инфо капитал, 2020. – Б. 106-137.

ko‘lamdorrog tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning bilan birgalikda, romanning qaysi tipga mansublanishiga qarab undagi konflikt xarakteri ham belgilanadi. Masalan, realistik romanlarda konflikt real ijtimoiy kuchlar yoki real shaxslar o‘rtasida, falsafiy romanlarda dunyoqarashlar, falsafalar o‘rtasida, psixologik romanlarda psixologik holat, vaziyat yoki botiniy psixologik qutblar o‘rtasida, ma‘rifiy romanlarda ma‘rifat va jaholat kuchlari o‘rtasida sodir bo‘ladi va h.k.

Dissertatsiyamiz obyekti bo‘lgan maishiy va qisman ijtimoiy tipdagi romanlarda esa konfliktning bir yo‘la uchta tipi ko‘zga tashlanadi. Bunday romanlarda birlamchi va eng yetakchi konflikt shakli sifatida maishiy konfliktni olish maqsadga muvofiq. Ota-ona va farzand, qaynona va kelin, kelin va kuyov qarindoshlari, kuyov va kelin qarindoshlari, kundoshlar, hatto kelin va kuyov o‘rtasida ro‘y beradigan konfliktlar maishiy romanlarda to‘ydan keyingi turmush tasvirida faol uchraydi. Bu tip romanlarda oshiq, ma‘shuq, ag‘yor uchligi ikki yosh to‘yiga qadar bir raqib obrazini, to‘ydan keyin esa boshqa raqibni maydonga chiqaradi.

Badiiy asar kontekstiga ko‘ra A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani zamon tasviri bilan boshlanib, tasvir obyektivi shundan keyingina makon tasvirini aks ettirishga o‘tadi. F.Dyushenning “Tamilla” romanida esa dastlab makon tasvirlanadi, voqealar kechadigan joy manzarasi nisbatan to‘liqroq chiziladi. Shundan keyingina asar voqealari ro‘y berayotgan vaqt haqida tasavvur paydo bo‘ladi. Har ikkala romandagi makon va zamon tasvirida maishiy, ijtimoiy va shaxs bilan bog‘liq unsurlar o‘zaro qorishib ketgan. Mana shu qorishqlik asarlarning keyingi voqealari rivojida maydonga keladigan konflikt turlari hamda psixologik tasvirga asos bo‘lib xizmat qilgan. “Qamar” romani dialog bilan boshlanganiga qaramasdan, undagi dastlabki urg‘u makon tasviriga berilgan. Dialogning boshida Qamarning xonadoniga fransuz oqsuyagi Braun xonimning kelishi xabari beriladi, ya‘ni dastlab darak gap keladi. Demak, kimningdir qayergadir kelishi haqidagi xabarning o‘zidanoq badiiy makonning mavhum tasviri anglashiladi.

A.Qodiriy va F.Dyushen romanlarini umumiy kuzatishdan ma‘lum bo‘lyaptiki, birinchi muallif asarni boshlashda zamon tasviriga, ikkinchi muallif esa joy makon tasviriga asosiy urg‘uni bergan. Buning natijasida asar voqealari kechadigan yetakchi syujet komponentini go‘yoki oldindan belgilab, ko‘rsatib qo‘ygan. Natijada A.Qodiriy romani tarixiy, ijtimoiy, maishiy mavzularni jamlagan, milliy tarixga doir muammolar aks etgan keng planli asarga aylangan bo‘lsa, F.Dyushen romanlari, asosan, kundalik yumushlar aks ettirilgan maishiy asarga aylangan. Bundan kelib chiqadiki, asosan, maishiy muammolar talqin etilishi ko‘zda tutiladigan romanlarda voqealar makon tasviri bilan, tarixiy, ijtimoiy, milliy mavzular talqin etilishi mo‘ljallangan romanlarda esa zamon tasviri bilan boshlanar ekan. Haqiqatdan, M.Baxtin ham ta‘kidlaganidek, oila, kundalik maishat, bir inson yoki oila maishiy turmushi tasvirlanadigan epik asarlarda zamon u qadar faol bo‘lmasligi mumkin, chunki bunday asarlarda asosiy jamlash vazifasini makon, manzil, joy bajaradi. Aksincha, o‘tkir milliy, ijtimoiy muammolar tasvirlangan asarlarda esa voqealar shiddati va to‘g‘ri chiziqli harakatini rivojlantirish vazifasi zamonga yuklanadi¹⁸. Konfliktlar va ularning psixologik tasviri ham xuddi shunga qarab xarakterlanadi.

¹⁸ Қаранг: Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Т., 2015.

“Qamar” romanidagi shaxs va shaxs o‘rtasidagi konfliktning psixologik tasviriga Muhammad va Jon o‘rtasidagi konfliktni keltirib o‘tish mumkin. Chunki bu yerda qahramonlarning ikkalasi ham sun‘iy niqob ostidagina o‘zaro muloqot munosabat hosil etadi. Muhammadning Qamarga bo‘lgan zulmi va behuda rashklarining barchasi ostida Jondan qilayotgan rashki turadi. U hech bir sababsiz o‘z jufti haloli Qamarni g‘ayridin - fransuz Jondan rashk qilar ekan, bu behuda rashk kundan-kun kuchayib, rivojlanib boradi. Dastlab maishiy doirada boshlangan bu rashk sekin-asta ikki shaxs o‘rtasidagi raqobatga, bundan o‘tib ijtimoiy darajaga ko‘tariladi.

Xuddi shu holatni bir muncha boshqacharoq tarzda “Tamilla” romanida ham kuzatishimiz mumkin. Qizig‘i shundaki, F.Dyushen arab urf-odatlarini yaxshi biladi. Shundan kelib chiqib, nisbatan zamonaviyroq qahramon Qamar markazida turgan romanida uning onasi Zardudaning eri Bakir bilan ikkinchi xotinni olish masalasida sudlashish epizodini keltiradi.

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida esa faqat ijtimoiy-siyosiy, milliy konsepsiyalarning mustahkamligi, hayotiy haqiqatga tayanishi nuqtai nazaridagina emas, hatto sof maishiy muammolarning psixologik talqinida ham F.Dyushendan ko‘ra anchayin ustun ekanligini ko‘rsatgan. Ayol psixologiyasini ularga xos ikki lager – kundosh-kundosh, ayol-ayol o‘rtasidagi maishiy muammolarga doir jiddiy konfliktlar asosida yoritib berishga erishgan. Bunda har bir qahramonning yoshi, mavqe, o‘zaro konfliktlarning murakkablik darajasiga ko‘ra tasvirlashga e‘tibor bergan. Natijada “O‘tkan kunlar” romanidagi konfliktning badiiy-psixologik ko‘lami kengayib, qahramonlar xarakterining atroflicha ochilishiga olib kelgan.

XULOSA

1. Maishiy roman nasr tarixidagi eng qadimiy roman tipi. Demak, odamzotning birinchi badiiy obyekt ham ulkan, muammolarga to‘la ijtimoiy hayot ham, to‘zonli, tashvishli tabiat hodisalari ham bo‘lmagan. U dastlab oilasi, maishiy hayoti haqida mushohada qilgan. Bundan esa boshqa kattaroq muammolar talqiniga tomon o‘sib borgan. Bu jarayon ko‘proq grek antik romani va uning tarixiy ta’siri jarayonlarida yorqinroq kuzatiladi. Ilk grek adabiyotiga mansub sevgi-muhabbat, oila qurish mavzusidagi maishiy-muhabbat romanlari Yevropa romanchiligining keyingi taraqqiy etgan davrlarida ham o‘z ta’sir kuchini yo‘qotmagan. Qadim grek romanining bu qadar ulkan ta’sir ko‘lamiga egaligi shunda ham ko‘rinadiki, bunday ta’sirdan zamonaviy Sharq nasriga mansub arab, turk, eron va o‘zbek romanchiligi ham bebahra qolmagan.

2. Maishiy mavzudagi roman epos syujetlari bilan geneologik munosabatga ega. Umuman, epos va ertaklardan boshlanib, roman janriga transformatsiya bo‘lgan bu voqea maishiy va muhabbat romanlariga xos quyidagi jihatlarni ta’kidlash, epik talqin etishga xizmat qilgan deyish mumkin: a) roman qahramonining g‘ayrioddiy tug‘ilishi; b) ularning topib olinish voqeasi roman syujetida tasodif liniyasining boshlanishiga xizmat qilishi; v) oshiq va ma’shuqning oddiy bolalardan ajralib turishi; g) biomorfik obyektlar vositasida ularga nisbatan ilohiy homiylikka urg‘u berilishi; d) har ikkala qahramonning nasab jihatidan ulug‘vorligini ular tashlab ketilganlarida yonlarida qoldirilgan narsa-buyumlar (kiyim-kechak, mato parchasi, medalion, uzuk,

kamar, bilaguzuk, tumor va h.k.) vositasida ta'kidlash va ular ulg'aygandan keyin oliy nasab egasi ekanini isbot qilishi; e) qahramonlarning asli shahar ahliga mansub bo'lishlaridan qat'iy nazar tabiat qo'ynida ulg'ayishi, shu muhitni sevib qolishi, shahar muhitidan ko'ra maishiy-ekzotik muhitni ustun qo'yishlari.

3. Epik asarlar qaysi bir mavzuda yozilgan bo'lmasin, ikki muhim xususiyatdan xoli bo'la olmaydi. Bu xususiyatlarning biri muhabbat syujet liniyasi bo'lsa, ikkinchisi shahar va qishloq muqoyasasi bo'lib hisoblanadi. Qolaversa, bu va shunga o'xshash badiiy xususiyatlar yozuvchi tomonidan aniq ravishda badiiy-psixologik tasvirlar vositasida ochib beriladi. Bular epik asarlarga xos maishiy muammolar sirasiga kiradi. Abdulla Qodiriy va F.Dyushen romanlarida esa oshiq-ma'shuq o'rtasidagi muhabbat, ayriliq, visol mojarolari asosiy o'rinni egallaydi. Bu mojarolar ko'pincha shahar va provinsiya singari badiiy makonlar doirasida ularning ziddiyatli tasviri ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadim romanlarga xos xususiyatlarni o'zida aks ettiradi.

4. Jahon romanchiligi takomili muayyan tartib asosida, tadrijiy usulda shakllanib, rivojlanib borgan. Dastlab mif va folklor elementlari bilan to'lib toshgan roman asta-sekinlik bilan maishiy romanlar, muhabbat romanlari, satirik-komik romanlar tarzida murakkablashgan. Bora-bora roman individual ijod namunasiga aylanib, sof avtorlik ijodi namunasi bo'lib qolgan. Ayni paytda roman tor ma'noda individuallashtirilgan nuqtalarida ham o'zining qadim namunalariga xos mavzu va mundarijani saqlab kelgan. Bu jihat, ayniqsa, ishqiy romanlari va maishiy romanlarda yaqqolroq ko'rinadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani ham Yevropa an'alaridan F.Dyushen romanlariga nisbatan qaraganimizda kam ulush olmagan. Ammo har bir xalq adabiyotining o'ziga xosligi undagi milliy an'alar, lokal shakllanish jarayonlari bilan o'ziga xoslik kasb etganidek, "O'tkan kunlar"ning turkiy millat nasri, she'riyati an'analari asosiy zamin bo'lib xizmat qildi. Jahon va o'zbek nasrining shakllanishini maishiy mavzudan, maishiy mavzu rivojini esa xalq ijodiyoti, klassik nasr va jahon prozasi an'alaridan ayro tasavvur etish mumkin emas.

5. Ruhiy-psixologik tasvir faqat qahramon, personajlar xarakterini ochish uchungina emas, balki voqeliklar, holatlar, vaziyatlar, ijtimoiy munosabatlar, oila munosabatlariga xos chigalliklarga atroflicha, o'quvchi tushunadigan darajada ta'rif, talqin berish imkonini beradi. Inson fenomenini turli rakurslardan kuzatish, uni maishiy turmush intrigalari fonida tasvirlashda muhim badiiy vazifa bajaradi. Turmushning maishiy muammolari esa o'z hayotimizda kuzatishimiz mumkin bo'lganidek, turli fitnalari, kelishmovchiliklar, quvonchlar, tashvishlar, yig'i va iztirob, qayg'ularsiz bo'lishi mumkin emas.

6. Bosh qahramon psixologiyasidagi dinamika, og'ish, tanazzul, iztirob va quvonchli holatlar yozuvchi nuqtai nazari asosida asar mazmunini shakllantirib, kengaytirib, mukammallashtirib borar ekan, asardagi boshqa personajlarning unga ta'siri bo'lgani holda, ayni vaqtda undan ta'sirlanishi, natijada o'z fikr-qarashlari, faoliyatini yangilash, o'zgartirishiga olib keladi. Biz tadqiq etgan romanlar XX asar boshlarida yozilgan. Shu bois ularda jahon epik tasvir an'alarining barchasi ham to'la namoyon bo'lmagan. Hatto millati fransuz, yashash joyi Jazoir bo'lgan F.Dyushen ham Yevropadagi yangi epik nasr an'alaridan ko'ra, nisbatan sodda, maishiy-realistik tasvir yo'lini ma'qul ko'rgan. A.Qodiriy esa o'zbek va Sharq xalqlari

nasr an'alarini davom ettirgan. Bu an'anaga oid doston, ertak, qissa, masnaviychilik an'alariga ergashgan.

7. Badiiy nutqning hikoyalash, tavsif, dialog singari yetakchi shakllari har uchala romanda ham atroflicha istifoda etilgan. Bunda hikoyalash muallif konsepsiyasi, nuqtai nazari, nutqiy individualligini namoyon etib keladi. Ta'rif-tavsif qahramon, personaj, syujet hamda asar voqeligini tashkil etuvchi epizodlar tizmasini xarakterlashga xizmat qiladi. Dialoglar esa romanlardagi personajlar tizimining izchil tarzidagi poetik harakatini ta'minlaydi. "Qamar" romanida muallifning o'zi hikoyalovchi va tavsiflovchi rolini aniq bajaradi. Faqat dialogik muloqotlardagina bu rol ni nisbiy tarzda qahramonga beradi. Romanning ilk jumlasini ham "Tamilla" va "O'tkan kunlar" romanlaridan farqli ravishda dialogik nutq shakli bilan boshlanadi. Har uchala romanda asosiy roviy vazifasini, muallifning o'zi bajaradi.

8. "Tamilla" va "Qamar" romanlarining "O'tkan kunlar" romanidan kompozitsiya, mazmun, badiiy g'oya tomonlari keskin farqlanadigan bir jihati bor. Bu farq birinchidan, A.Qodiriy romanida milliy dard, ijtimoiy muammolar bilan oilaviy, maishiy muammolar uyg'un aks ettirilgan bo'lsa, F.Dyushen romanlari, asosan, maishiy muammolarning sentimental-psixologik talqin etilishida ko'rinadi. Ikkinchidan, A.Qodiriy romani bir millat tarixi va buguni haqidagi shu millat vakili bo'lgan, shu millat uchun iztirob chekkan muallif qalamiga mansub. F.Dyushen romanlari esa begona millat haqida xorij kishisi, qolaversa, mustamlakachi bir millat yozuvchisining nuqtai nazarini ifodalaydi. Badiiy syujet, obraz, qahramon, personaj tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Syujetlilik epik turning qoni va joni hisoblanadi. Chunki syujet badiiy asar uchun hayotiy materiallarni uyushtirib beradi. Muallif badiiy niyatiga ko'ra hayot voqeligidan asar muallifi miyasida "konspektlashtirib" olgan voqealarni aniq bir tartibga keltiradi. O'quvchi uchun qulay holda yetkazib beradi. Syujet psixologiyasining yuzaga kelishi qahramonlarning ichki va tashqi xatti-harakatlarida yaqqolroq ko'rinadi. Asardagi markaziy yoki bosh qahramon tarzida ataladigan obraz harakati bu yerda asosiy uyushtiruvchi, jamlovchi komponent vazifasini bajarib keladi.

9. "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek, "Tamilla" romanidagi Tamilla obrazlari syujetning asosiy harakat markazi bo'lib hisoblanadi. "O'tkan kunlar"ning "Tamilla" va "Qamar" romanlaridan katta farqi shundaki, uning bosh qahramoni Otabek ulkan va milliy ahamiyatga ega qahramonlar bilan bog'liq syujetlarning harakati uchun vosita bo'ladi. Romanlarda voqealar xuddi shu tarzda qahramonlarning tashqi va ichki harakatlariga ko'ra uyushtirilgan. "O'tkan kunlar" romanida syujetning ikki shaklidan unumli foydalanilgani aniq seziladi. Birinchidan, A.Qodiriy o'zbekning "Tohir va Zuhro", "Farhodu Shirin", "Bahrom go'r", "Ibrohim Adham" singari xalq kitoblarini o'qishga o'rgangan o'quvchiga qulay va tushunarli yetkazish uchun xalq kitoblari, folklor asarlari, klassik dostonchilik an'alariga o'xshatib xronikali syujetdan, shuningdek, parallel (konsentriklashtirilgan) shaklidan foydalanilgan. Mana shunday parallel syujet tarmoqlarining mahorat bilan uyushtirilishi, voqealarning personajlar xatti-harakatiga mos aniq bir g'oya, badiiy pafos uyg'unligida tasvirlanishi roman voqeligining badiiy haqiqatga mosligini ta'minlaydi.

10. "O'tkan kunlar" romani obrazlari birinchidan, mukammal ishlanganligidan, ikkinchidan, o'zaro ichki poetik silsilaviylikni hosil etishda aniq

tizimga asoslanishi, uchinchidan, bu obrazlarning har bittasi chuqur psixologik talqin etilib, maishiy oila hamda muhabbat g'oyaviy konsepsiyalari asosida badiiy tasvirlanganligi jihatidan o'ziga xoslik kasb etadi. F.Dyushen romanlaridagi obrazlar tizimi ham umumiy jihatdan qaralganda, A.Qodiriy obrazlar tizimi bilan qator mushtarakliklarga ega. XX asrning 30-yillarida faol ijod pallasiga kirgan, qolaversa, Jazoirda uzoq vaqt yashagan F.Dyushenning kuzatishlari, real arab hayoti, real odamlar asosida shakllantirilgan roman obrazlari boshqa fransuz tarixchi va adiblari fikrlaridan ko'ra ortiqroq qimmat kasb etadi.

11. O'tkan kunlar" romanida maishiy konfliktning eng yuksak cho'qqisi Zaynab va Kumush munosabatlarida aks etadi. Ayni paytda roman faqat ijtimoiy-siyosiy, milliy konsepsiyalarining mustahkamligi, hayotiy haqiqatga tayanishi nuqtai nazaridagina emas, hatto sof maishiy muammolarning psixologik talqinida ham F.Dyushendan ko'ra anchayin ustun ekanligini ko'rsatgan. Ayol psixologiyasini ularga xos ikki juftlik – kundosh-kundosh, ayol-ayol o'rtasidagi maishiy muammolarga doir jiddiy konfliktlar asosida yoritib berishga erishgan.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL UNDER SCIENTIFIC COUNCIL
AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 AT
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND
LITERATURE NAMED AFTER ALISHER NAVOI**

ALIQULOVA DILDORA BAKIR QIZI

**ARTISTIC AND PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF EVERYDAY
PROBLEMS IN THE NOVELS “BYGONE DAYS”, “TAMILLA” AND
“KAMAR”**

10.00.06 – Comparative Linguistics, Translation, and Literary Studies

**DISSERTATION ABSTRACT
of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philological Sciences**

Tashkent – 2024

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy(PhD) was registered at the Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan with the number No. B 2023.4.PhD/Fil4120.

The dissertation is accomplished at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian, English (summary)) on the website of the Academic Council (www.tsuull.uz) and on the Information and Educational portal “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).

Scientific adviser: **Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich,**
Doctor of Science in Philology, Academic

Official opponents: **Yusupova Dilnavoz Raxmonovna**
Science in Philology (DSc), Professor

Umarova Nilufar Turopovna
Candidate of Philological Sciences, Docent

Leading organization **Tashkent State Pedagogical University**
named after Nizomi

The defense of the dissertation will be held at ___ on — ___ || _____ 2024 at the meeting of the Scientific Council on Award of Scientific degrees DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi. Address: 100070, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Khojib street, 103. Tel.: (99871) 281–42–44; fax: (99871) 281–42–44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.)

The doctoral dissertation may be taken from the Information Resource Center of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi (registered under No. 291). Address: 100070, Tashkent, Yakkasaroy district, Yusuf Xos Khojib street, 103. Tel.: (99871) 281–42–44; fax: (99871) 281–42–44, (www.tsuull.uz); e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz.)

Abstract of the dissertation is distributed on — ___ || _____ 2024.

Protocol at the register No. _____ dated — ___ || _____ 2024.

N.Z.Normurodova
Chairperson of the Scientific Council
to award Scientific degrees, Doctor
of Science in Philology(DSc), Professor

Q.Pardayev
Scientific Secretary of the Scientific
Council on the Award Scientific
degrees, doctor of Philological
Science (DSc), Professor

U.H.Jo‘raqulov
Chairperson of the Scientific Seminar
under the Scientific Council on the
Award Scientific degrees, doctor of
Science in Philology (DSc), Professor

INTRODUCTION (abstract of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

The topicality and relevance of the research. The historical trajectory of global literary development over the past century underscores that the dominance of anthropocentric approaches has catalyzed a significant diversification in literary trends and methodologies. By the 20th century, the exploration of human essence had intensified, revealing that conventional frameworks and ideologies were inadequate for interpreting the complexities of existence. Consequently, literary expressions evolved to reflect these intricate psychological landscapes, aligning more closely with the cognitive demands of the era rather than the conventional expectations of readers. The globalization of the world further facilitated the convergence of national literary movements, heralding the emergence of a unified literary domain.

New literary movements that probe the inner workings of the human psyche — such as modernism, surrealism, postmodernism, existentialism, absurdism, and stream of consciousness — originated in French art and literature and gradually permeated European literary culture. This literary transformation also began to influence Uzbek literature. Since the late 20th century, there has been a notable increase in artistic works within our national literature that delve into and analyze quotidian human issues. These works, including those by Abdullah Kadiri, Khurshid Dostmuhammad, Togay Murad, Ulugbek Hamdam, and Zulfiya Kuroloy kizi, explore the human condition and its inherent contradictions, often employing traditional Western narrative techniques.

In this context, our writers have drawn inspiration from the creative and intellectual legacies of prominent global literary figures such as F. Duchene, E. Zola, A. Camus, S. Beckett, and J. Sand. This underscores the importance of studying the creative intersections and spheres of influence between Uzbek literature and the literary traditions of other nations. After all, “...attention to literature and art, culture is, first of all, attention to our people, attention to our future, as our great poet Cholpon said, we must not forget that, if literature and culture live, the nation lives.”¹⁹ Comparative literary studies must therefore rigorously examine the interactions between diverse literary principles, trends, and doctrines that are reshaping the contemporary literary landscape. This approach not only highlights the relevance of our research but also emphasizes the critical necessity of advancing literary scholarship in this domain.

The dissertation research aligns with the strategic initiatives outlined in several key policy documents of the Republic of Uzbekistan. These include Presidential Decree PF-60, dated February 28, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026," and Presidential Decree PF-4947, dated February 7, 2017, "On the Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan", the Presidential Decree PQ-2995 dated May 24, 2017 “On measures to further

¹⁹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустақкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 4 август.

improvement the system of preservation, research and promotion of ancient written sources”, the Presidential Decree PQ-3271 dated September 13, 2017 “On the program of comprehensive measures to develop the system of publishing and distribution of book products, popularizing book reading and enhancing reading culture”. Furthermore, the research considers the directives set forth by the President of the Republic of Uzbekistan during his speech at the meeting with representatives of the creative intellectuals visiting the Alley of Writers in Tashkent on May 20, 2020. These legal and regulatory documents provide a framework for the research, guiding its focus on enhancing the influence of literature and aligning it with national cultural and intellectual development objectives.

Compliance of the research to the priority directions of development of science and technologies in the republic. The dissertation research was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology in the Republic of Uzbekistan: 1. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and a democratic state.”

Degree of study of the topic. The problem of artistic psychology and psychological analysis in literary studies has been extensively examined by scholars such as I.V. Strakhov, S.G. Bocharov, A.N. Iezuitov, L.Y. Ginzburg, V.V. Kompanets, M.B. Khrapchenko, A.B. Esin, M.M. Bakhtin, R. Wellek, O. Warren, P. Ricoeur, R. Brat, V. V. Vinogradov, L. Kolobaeva, V. M. Zhirmunsky, A. Zis, D. Zatonky, and A.V. Kovalev, among others²⁰. These contributions, from both American and Russian researchers, have laid a substantial foundation in understanding the intricate relationship between psychological analysis and literary studies.

